



MAKTABGACHA TA'LIMDA „KEYS- STADY TEXNALOGIYASI “ QO'LLASH

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani 56-Dmtt direktor o'rinbosari

Boratova O'g'iloy Sodiqjon qizi

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida keys-stady texnologiyasi qo'llash xususiyatlari ishlab chiqilgan. Keys-stady texnologiyasining asosiy maqsadi o'quv didaktik vazifalari, mavjud muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali ularning ilmiy–ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. Bolalarda bilimlarni kundalik turmush tarzi bilan bog'lashni, bolalarning fikrlash qobiliyatini o'stirish, o'qitish samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladigan ta'lim metodlaridan biri hisoblanadi.*

Kalit so'zi: *Pedagogik-texnologiya, ta'lim-tarbiya, model, texnologiya, izlanuvchanlik, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, keys-stadi, ilmiy-ijodiy,*

KIRISH

“Agar mendan sizni nima qiynaydi?” deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman.

Sh.Mirziyoyev

Bugungi kunda yurtimizda maktabgacha ta'lim tizimiga o'qitish sohadagi zamonaviy innovatsion texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy qilish, ta'lim faoliyatida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarni hamkorligini ta'minlash, ta'lim oluvchilarning mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlash uchun olib borilyotgan islohatlar va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga bo'lgan davlat talablari asosida maktabgacha ta'lim, jumladan pedagoglarni o'qitish dasturini ishlab chiqishda ko'mak berdi. Maktabgacha ta'lim tizimini ta'lim mazmunini takomillashtirishga oid qabul qilingan hukumat qarorlari, samaradorligini oshirishni, tez taraqqiy etib borayotgan jamiyat uchun har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab



yetishtirishni talab qiladi. Shu o'rinda ta'lim texnologiyalarining kirib kelishi va qo'llanishi davr talabi bilan bevosita bog'liqdir.

Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, aksariyat hollarda tarbiyachi faoliyat jarayonida faqat o'zi ishlaydi, tarbiyalanuvchilar esa kuzatuvchi bo'lib qolaveradilar. Ta'limning bunday ko'rinishi bolalarning aqliy tafakkurini o'stirmaydi, faolligini oshirmaydi, ta'lim jarayonidagi ijodiy faoliyatini so'ndiradi. Shuningdek, ilg'or pedagogik texnologiya asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarni bilimlarining yaxlit o'zlashtirilishiga yordam beradi, o'quvchi tafakkurini o'stiradi, mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Zero, barkamol avlod tarbiyasi jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Aynan amaliy vaziyatlarni hal qilishda qo'llaniluvchi keys-stadi texnologiyasi kelgusi faoliyat jarayonida yuzaga keluvchi vaziyatlarning yechimini oldindan topishga o'rgatuvchi, yangi yechimlarni ishlab chiqishga yo'naltiruvchi pedagogik texnologiyalardan biridir.

Keys stady texnologiyasi inglizcha "Case study" so'zlaridan olingan. Bunda "Case"-yashik, quti, g'ilof, jild, study-o'rganish, tadqiq qilish, ilm bilan shug'ullanish, o'quv fani, saboq olish, o'qish ma'nolarini bildiradi.

Keys-stadi" texnologiyasi dastlab 1870 yilda AQShning Garvard universitetining huquq maktabida, 1924 yilda biznes maktabida qo'llanilgan. Hozirda texnologiya xorijiy mamlakatlarda iqtisodiyot, biznes sohalarida ham keng qo'llanilmoqda. Rossiyada esa u

o'tgan asrning 80-yillarida dastlab MDUda, keyinchalik esa boshqa ta'lim muassasalarida ham faol qo'llanila boshlandi. O'zbekistonda

"Keys-stadi" metodi ta'lim jarayoniga mustaqillik yillaridagina tadbiiq etildi.

Xorijiy ta'limida keyslarni qo'llashga nisbatan shunday yondoshuv mavjud; keys – real hayotning "bir parchasidir" (ingl. "True life"). Chet ellardagi biznes-maktablarda odatiy vaziyatlarni o'rganishga o'quv vaqtining o'rtacha 25 %dan 90 %gacha bo'lgan qismi ajratiladi.

Masalan, Chikago universiteti biznes-maktabida o'quv vaqtining 25 % keyslar ulushiga, Kolumbiya universitetida, 30 %, Uortonda esa – 40 % to'g'ri keladi.



Mashgulotlarni ushbu uslub bo'yicha o'tkazishga ajratiladigan soatlar soni bo'yicha Garvard yetakchilik qiladi. Oddiy

talaba ta'lim davrida 700 tagacha keyslarni ko'rib chiqadi va buning uchun o'quv vaqtining 90%gacha qismini sarflaydi

Keyslarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- baholash, tahlilga o'rgatuvchi;
- muammoni yechish, qaror qabul qilishga o'rgatuvchi;
- umumiy tarzda muammoni yechishga o'rgatuvchi keyslar

Keys-stadi texnologiyasi

nazariy bilimlarni amaliy vazifalarda hal qilishga yo'naltirilgan tizimdir

Keys stadi texnologiyasining asosiy vazifalari:

1. Bunda o'quv jarayonining vazifasi ma'lum bo'lib qolgan an'anaviy tizimdan chetga chiqish va bitta aniq qarorni qabul qilmasdan mantiqiy fikrlagan holda turli-xil javoblar variatini topish bilan ifodalanadi.

2. Ta'limning maqsadi tayyor bilimlarni egallashga emas, balki mustaqil o'rganishga, talaba bilan o'qituvchini hamkorligini ta'minlashga qaratilgan.

3. Keys -stadi texnologiyasi orqali nafaqat bilim olinadi, balki kasbiy ko'nikma va malakalar ham egalaniladi.

4. Ushbu jarayonda hayotda sodir bo'ladigina voqealar asosida modul ishlab chiqiladi. Muammoni hal qilish davomida o'qituvchi yordamchi, yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi.

5. Texnologiyasining mohiyati nafaqat bilim egallash, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, hayotiy vaziyatlarni o'rganish, olingan bilimlarni tadbiq qilishdan iboratdir.

6. Keys- stadi texnologiyasida an'anaviy ta'limdagi kamchiliklar bartaraf qilinadi, yani quruq izohlashlar o'rnini, ijodiy tortishuvlar egalaydi, dars jarayonini xuddi teatr tomoshasini eslatadi.

Keys-stadi texnologiyasi ta'limda interfaol uslub bo'lib talabalarda darsga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi, nazariy materiallarni amaliy tadbiq qilishni



ko'zlaydi, ta'lim jarayoniga nisbatan ijodiy motivlarni shakllantiradi. Shu bilan birgalikda bu uslub tarbiyachi siymosini yangicha talqin qiladi, uni ijodiy izlanishga bolalarda tasviriy faoliyatni ijodiy-qobiliyatlarini fikrlashga yangilik yaratishga undaydi. Chunki

tasviriy faoliyat vositasida bolalarning ijodkorligi, ijodiy fikr, tasavvur, idrok etish qobiliyatlari shakllanadi.

Tasviriy faoliyat bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkiloti keys stadi texnologiyasini qo'llash orqali bolalar predmetlar bilan uzviy bog'lanadilar, ularning o'ziga xos sifatleri, shakli, rangi katta-kichikligi bilan tanishadilar, bu esa bolalarni sensor tarbiyalashga ko'rgazmali obrazli fikr yuritishga imkon beradi.

Bolalar ishlarida o'z hayotida, jamiyatda bo'layotgan voqea hodisalarni aks ettiradilar, ulardan mamnun bo'ladilar, hayajonlanadilar. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatleri boshlangan ishning oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga intilish qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarga bir-biriga yordam, kelishib ishlash kabi sifatleri, ishni baholash jaryonida ularda o'rtoqlarining ishga nisbatan real munosabatda bo'lish, to'g'ri baholash, o'z ishidan va o'rtoqlarining ishidan xursand bo'lish kabi axloqiy sifatlar shakllanadi.

XULOSA

Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat keys stady texnologiyasi katta ahamiyat kasb etadi. Sababi, an'anaviy ta'lim jarayonidagi tasviriy faoliyatdan ko'ra keys stady texnologiyasida olib borilgan tasviriy faoliyat jarayoni bolalarda idrok tassavur shakllanishi sezilarlari darajada ortadi. Maktab tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli egallashlariga asos bo'ladi. Ularni o'quv faoliyatiga tayyorlaydi: pedagogni tinglashga, uning ko'rsatmalarini bajarishga o'rgatadi. Oldiga qo'yilgan vazifani hal etishda, uning asosiy va muhim hal etish yo'llarini izlab topishbu o'quv faoliyatning asosiy sababchilaridan biridir. Tasviriy faoliyat jarayonida o'z ishini nazorat qilib borish, maktabda vazifalarni bajarishda ham rol o'ynaydi. Shuningdek, bola tasviriy faoliyat jarayonida psixologik jihatdan ham tayyorlanib boradi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ashura D. Yuldasheva Z. "Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llash-zamon talabi" "xalq ta'limi"j Toshkent 2016 №16-17
2. "Ilk qadam" davlat dasturi T:2018.
3. Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari. T.2019.
4. Amirova G.A. Sulaymonov A.P. Djurayeva B.R. Maktabgacha ta'lim muassasalarida applikasiya mashg'ulotlari. T.2014
5. D.T. Sabirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy savodhonlik elementlarini shakllantirish. (13.00.01.-Pedagogika nazariyasi va tarixi ixtisosligi bo'yicha yozilgan dissertatsiyaning avtoreferati) T.2007